

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 266 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloyevich	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
Djumayev Farrux Toshmuratovich	
Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт	111
Авезова Нилуфар Раббанакуловна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуловна	
The process of developing startups based on management principles	119
Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li	
The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan.....	126
Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	134
Исомов Б. С.	



Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish	138
Umarov Begzodbek Jaloldinovich	
O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari.....	143
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich	
Davlat - xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini oshirish.....	150
Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich, Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.....	155
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Tijorat banklari likvidligini tartibga solish yo'llari.....	160
Tursunpo'latov Sohbnazar Kasimjon o'g'li, Nomozova Mohinur Maxmud qizi	
Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishda yashil moliya vositalarining roli: xalqaro tajriba va O'zbekiston imkoniyatlari	163
Yuldasheva Madina Tohir Qizi	
Geofazoviy ma'lumotlar asosida hududlarning farovonlik darajasini aniqlash	173
Toymasov Zufarjon Zokir o'g'li	
Методы и критерии оценки эффективности конкурентоспособности предприятия	179
Кучаров Абдор Сабижанович, Бобожонов Азиз Бабаханович, Алижанова Камила Тохир кизи	
Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	187
Narbayeva Dilnoza Darvishaliyevna	
Development of entrepreneurship in Uzbekistan: management strategies in the context of economic reforms	192
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
Aloqa korxonalari xizmat faoliyatida diversifikatsiya qilishning ilmiy baholash usullari va ulardan foydalanish.....	197
Tursunova Mastura Taxirovna	
Developing effective marketing strategies for tourism development in Uzbekistan	204
Fayzullayev Nodirbek Baxtiyor o'g'li	
Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	208
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzayevich	
Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida investitsiya loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish.....	212
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	
Цифровизации системы стратегического управления предприятий нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан.....	217
Азимов Кабул	
Индекс устойчивости региона против бедности (poverty resilience index – pri): на примере бухарской области Республики Узбекистан (2024)	223
Мухамедова Мадинабону Мехридиновна	
Экономические аспекты внедрения цифровых технологий в полиграфии.....	230
Юсупхужаева Шахноза Музаффар кизи	
Mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni shakllantirish va barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	233
Sattorov R. A.	
Web3'da real vaqt ma'lumot sinxronizatsiyasi — tarmoqdagi kechikishlar va ularni kamaytirish texnologiyalari.....	240
Raimov Ulugbek Yorqinbek o'g'li	
Tijorat banklarining likvidligini tartibga solish amaliyotining dolzarb masalalari	246
Sayfutdinov Bobur Nodirovich	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	255
Yuldoshev Otabek Jovli o'g'li	



Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish yo'llari.....	261
Ortiqov Sidiqjon Xolmurodovich	



TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Ortiqov Sidiqjon Xolmurodovich

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB

Muammoli aktivlar bilan ishlash va undirish departamenti

Qarzdorlikni sud va boshqa organlar orqali undirish boshqarmasi menejeri

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish borasida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari bayon etilgan. Shuningdek, tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlardagi ilg'or tajribalar tahlil qilingan. Xususan, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi taraqqiy etgan davlatlarda banklarning investitsiya faoliyatini diversifikatsiyalash, moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish va risklarni samarali boshqarish usullari yoritilgan. Qolaversa, o'rganilgan mazkur tajribalarni O'zbekiston tijorat banklarida samarali qo'llash yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, investitsiya faoliyati, xorij tajribalari, moliyaviy innovatsiyalar, risklarni boshqarish, investitsiya portfeli, iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy barqarorlik.

Abstract: This article discusses the views of both foreign and domestic economists on increasing the investment activity of commercial banks. It also analyzes advanced experiences from foreign countries in developing banks' investment activities. In particular, the investment activity diversification, implementation of financial innovations, and effective risk management methods employed in developed countries such as the USA, Germany, the United Kingdom, Japan, and South Korea are highlighted. Furthermore, scientific proposals and recommendations are formulated for the effective application of these experiences in the commercial banks of Uzbekistan.

Key words: commercial banks, investment activity, foreign experience, financial innovations, risk management, investment portfolio, economic development, financial stability.

Аннотация: В данной статье рассматриваются мнения зарубежных и отечественных экономистов по вопросам повышения инвестиционной активности коммерческих банков. Анализируется передовой опыт иностранных стран в развитии инвестиционной деятельности банков. В частности, освещаются методы диверсификации инвестиционной деятельности, внедрение финансовых инноваций и эффективное управление рисками в развитых странах, таких как США, Германия, Великобритания, Япония и Южная Корея. Кроме того, сформулированы научные предложения и рекомендации по эффективному применению данного опыта в коммерческих банках Узбекистана.

Ключевые слова: коммерческие банки, инвестиционная деятельность, зарубежный опыт, финансовые инновации, управление рисками, инвестиционный портфель, экономическое развитие, финансовая стабильность.

KIRISH

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” [1]gi PF-60-son'li Farmonida investitsiyalarni kengaytirish va ularni samarali boshqarish, shuningdek, tijorat banklarining investitsion faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Ushbu farmon moliyaviy tizimni modernizatsiya qilish, banklarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish hamda yangi investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategik hujjatlardan biridir.

Hozirgi kunda banklarning investitsion faolligi milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash, xususan sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida o'sishga xizmat qilmoqda. Shu bois, investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish banklarning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston bank tizimi uchun moliyaviy infratuzilmani modernizatsiya qilish, qonunchilik bazasini mustahkamlash va risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifalardandir. Ayniqsa, tijorat

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



banklari uchun investitsion mahsulotlar va xizmatlarni kengaytirish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Shu bois, tijorat banklarining investitsion faoliyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu esa mamlakatimizning barqaror iqtisodiy o'sishiga, yangi ish o'rinlarini yaratishga hamda aholining turmush darajasini yaxshilashga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklarining investitsion faolligini kuchaytirish borasidagi harakatlar yanada kengaytirilishi zarur hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nobel mukofoti sovrindori Robert Merton o'z tadqiqotlarida tijorat banklarining investitsion faoliyatini samarali boshqarish uchun ilg'or moliyaviy instrumentlar va risklarni diversifikatsiya qilish muhimligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, banklar innovatsion moliyaviy vositalarni qo'llash orqali investitsion portfollarning samaradorligini oshirishi mumkin. Shuningdek, Merton banklarning raqamli transformatsiyani qabul qilishi va texnologik yechimlarni joriy etishi zarurligini qayd etadi [2]. Fikrimizcha, zamonaviy tijorat banklari Merton ta'kidlagan prinsiplarni chuqur anglab, ilg'or moliyaviy instrumentlarni faol joriy etishi lozim. Shunda ular nafaqat investitsion portfelni samarali boshqaradi, balki raqamli innovatsiyalar yordamida bozorda raqobatbardoshligini oshiradi.

Nyu-York universitetining Stern Biznes maktabi professori, moliyaviy boshqaruv bo'yicha dunyoga mashhur olim Aswath Damodaran tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish uchun kapitalni samarali boshqarish, aktivlarni to'g'ri baholash va investitsion qarorlarni tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi. U banklar investitsiyalarni diversifikatsiya qilish, yirik risklarni boshqarish hamda portfelni muntazam qayta ko'rib chiqish orqali uzoq muddatda daromadni oshirish imkoniyatiga ega bo'lishini qayd etadi [3]. Fikrimizcha, banklar Damodaran ta'kidlagan prinsiplar asosida kapitalni optimallashtirishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Shu bilan birga, investitsion qarorlarni tizimli va aniq tahlil qilish orqali uzoq muddatli barqarorlik va rentabellikni ta'minlash mumkin.

Iqtisodchi olimlar R. A. Brealey va S. C. Myers tijorat banklarining investitsion faoliyatini yaxshilash uchun kapitallashtirishni mustahkamlash va qimmatli qog'ozlar bozoridagi yangi instrumentlardan faol foydalanishni tavsiya qiladi. Shuningdek, ular banklar uchun riskni kamaytirish hamda investitsiya portfelini optimallashtirish tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishni muhim deb hisoblaydi [4]. Fikrimizcha, zamonaviy tijorat banklari Brealey va Myers ta'kidlagan tamoyillarni chuqur o'zlashtirib, investitsion faoliyatni samarali boshqarishda innovatsion moliyaviy vositalardan keng foydalanishi lozim. Shu yo'l bilan banklar risklarni minimallashtirib, barqaror daromad olish imkoniyatini oshiradi.

Iqtisodchi A. V. Ramazanov o'z tadqiqotlarida kredit tashkilotlarining vositachilik faoliyati va fuqarolarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faolligi qarz qimmatli qog'ozlarini chiqarish bilan bog'liq kompaniyalarning emissiya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlagan. Ushbu jarayon kompaniyalarning moliyaviy resurslarini kengaytirishga imkon yaratadi, bu esa o'z navbatida investitsiya faoliyatining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, Ramazanov ta'kidlaganidek, bu munosabatlarning barcha ishtirokchilari — kredit tashkilotlari, kompaniyalar va investorlar uchun barqaror o'sish va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi omil hisoblanadi [5]. Fikrimizcha, kredit tashkilotlari o'z vositachilik funksiyasini yanada rivojlantirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish yo'lida faoliyatini takomillashtirishi zarur. Bu nafaqat qimmatli qog'ozlar bozorining likvidligini oshirish, balki iqtisodiy tizimda ishonch muhitini yaratishda ham muhim rol o'ynaydi. Natijada, kredit tashkilotlari va bozor ishtirokchilari o'rtasidagi integratsiya kuchayadi, bu esa uzoq muddatda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi D. Sh. Xikmatillayeva ta'kidlaganidek, tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Uning fikricha, investitsion faoliyat samaradorligini oshirish uchun banklar zamonaviy moliyaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni keng joriy qilishi kerak. Banklar o'z investitsion portfelni tarkibini diversifikatsiya qilish orqali risklarni kamaytirishi va yuqori daromad olish imkoniyatini oshirishi lozim [6]. Fikrimizcha, zamonaviy raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni keng qo'llash orqali banklar investitsion faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Shu bilan birga, investitsion portfelni diversifikatsiya qilish orqali ular risklarni samarali boshqarib, nafaqat o'z faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi, balki milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ham sezilarli hissa qo'shadi.

Iqtisodchi B. Boyev o'z izlanishlarida tijorat banklarining investitsion faoliyatini samarali tashkil etish uchun quyidagi omillarni sanab o'tadi:

- investitsion kreditlarni samarali boshqarish orqali banklar investitsion faoliyatini oshirishi mumkin;
- xorijiy davlatlarning investitsion faoliyatini o'rganish va ularning ilg'or tajribalarini joriy etish zarur;
- investitsion risklarni samarali boshqarish orqali banklar investitsion faoliyatining barqarorligini ta'minlashi mumkin [7].



Fikrimizcha, yuqoridagi tavsiyalar zamonaviy tijorat banklari uchun investitsion faoliyatni takomillashtirishda muhim yo'nalish bo'lib, ularni joriy etish orqali banklar nafaqat o'z risklarini samarali boshqaradi, balki bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi va iqtisodiyot rivojiga sezilarli hissa qo'shadi.


Iqtisodchi J. O'razaliyevning fikricha, tijorat banklarining investitsion faoliyatini oshirish uchun bir nechta muhim omillar mavjud. Birinchidan, banklarning investitsion faoliyatini samarali qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish zarur. Bu infratuzilma banklarga yanada kengroq moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish va investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, tijorat banklari xalq xo'jaligini moliyaviy resurslar bilan ta'minlab, iqtisodiyotdagi investitsion jarayonlarni faollashtirishi lozim. Uchinchidan, investitsion risklarni kamaytirish maqsadida sug'urta operatsiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Sug'urta mexanizmlari banklarni kutilmagan moliyaviy yo'qotishlardan himoya qilib, investitsion faoliyatni barqaror qilishga yordam beradi [8]. Fikrimizcha, yuqoridagi omillarni kompleks ravishda rivojlantirish tijorat banklarining investitsion faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish yuzasidan xorij mamlakatlarining ilg'or tajribalari bo'yicha ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash va mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish, qonunchilik va regulyatorlik sohasidagi yangilanishlar, innovatsion moliyalashtirish hamda samarali risklarni boshqarish tizimlari muhim rol o'ynaydi. Har bir yo'nalish banklarning sarmoya jalb qilish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Quyida ushbu asosiy yo'nalishlar batafsil ko'rib chiqiladi (1-rasm).



1-rasm. Tijorat banklarining investitsion faolligini samarali oshirish va iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim o'rin tutuvchi asosiy yo'nalishlar [9]

Bugungi kunda global iqtisodiy integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgani sababli tijorat banklarining investitsion faoliyatini samarali rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari katta o'ringa ega. Xorijiy moliya bozorlari va bank tizimlarida qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar hamda texnologiyalarni o'rganish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali tijorat banklari investitsion jozibadorlikni oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xorijiy mamlakatlarda tijorat banklarining investitsiya faoliyati mamlakatlarning moliyaviy bozorlari va iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab turlicha shakllangan. Umuman olganda, ilg'or davlatlarda tijorat banklari o'z investitsiya faoliyatini diversifikatsiyalashga, yangi moliyaviy instrumentlar va innovatsion moliyalashtirish vositalarini qo'llashga katta e'tibor qaratadi.



Masalan, AQShda tijorat banklari nafaqat kreditlash sohasida faol bo'libgina qolmay, balki aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishda ham faol ishtirok etadi. Ular risklarni diversifikatsiyalash va portfellarni boshqarish tizimlarini rivojlantirish orqali uzoq muddatli daromadlarni maksimal darajada oshirishga intiladi.

Yevropa mamlakatlarida, ayniqsa Germaniya va Buyuk Britaniyada, tijorat banklari investitsiya faoliyatida maxsus investitsiya banklari bilan hamkorlik qilgan holda korxonalarning innovatsion loyihalarini moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bu banklar, shuningdek, investitsiya risklarini kamaytirish uchun sug'urta va garov tizimlarini rivojlantirishga katta e'tibor beradi.

Yaponiya va Janubiy Koreyada tijorat banklari davlat va xususiy sektor bilan yaqin hamkorlikda ishlab, yuqori texnologiyalar sohasiga sarmoya kiritadi. Bu mamlakatlarda banklar moliyaviy barqarorlikni saqlab qolgan holda investitsiyalarni diversifikatsiyalash orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashga intiladi.

Shuningdek, xorijiy mamlakatlarda tijorat banklari investitsiya faoliyatini rivojlantirishda quyidagi asosiy tamoyillar mavjud: moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish, risklarni boshqarish tizimlarini kuchaytirish, investitsiya portfellarini diversifikatsiyalash va davlat bilan samarali hamkorlik. Bu tajribalar O'zbekistonda ham tijorat banklarining investitsiya jozibadorligini oshirish hamda iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun muhim imkoniyatlarni beradi (1-jadval).

1-jadval. Tijorat banklarining investitsiya faoliyati bo'yicha xorijiy tajribalari [10]

Mamlakat	Asosiy xususiyatlari	Investitsiya faoliyatining asosiy yo'nalishlari	Risklarni boshqarish usullari
AQSh	Katta moliyaviy bozor, keng turdagi investitsiya vositalari	Qimmatli qog'ozlarga investitsiya, portfel boshqarish, innovatsion moliyalashtirish	Diversifikatsiya, kredit reytingi, bozor monitoringi
Germaniya va Buyuk Britaniya	Investitsiya banklari bilan hamkorlik, korxonalarni moliyalashtirishda ixtisoslashgan	Innovatsion loyihalar moliyalashtiruvchi, sug'urta va garov tizimlarini rivojlantirish	Sug'urta mexanizmlari, garovlar, risklarni tahlil qilish
Yaponiya va Janubiy Koreya	Davlat bilan yaqin hamkorlik, yuqori texnologiyalar sohasiga sarmoya	Texnologik startaplar va sanoat loyihalarini moliyalashtirish	Diversifikatsiya, davlat kafolatlari, barqaror investitsiya strategiyasi

AQShda tijorat banklari investitsiya faoliyatida katta moliyaviy bozor va turli investitsiya vositalaridan foydalanadi. Ular qimmatli qog'ozlar, portfel boshqaruvi va innovatsion moliyalashtirishga katta e'tibor qaratadi, risklarni esa diversifikatsiya, kredit reytingi hamda bozor monitoringi orqali boshqaradi. Germaniya va Buyuk Britaniyada tijorat banklari ko'proq investitsiya banklari bilan hamkorlik qilib, korxonalarni moliyalashtirishga ixtisoslashgan. Ularning asosiy yo'nalishlari innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va sug'urta tizimini rivojlantirish bo'lib, risklarni sug'urta mexanizmlari va garovlar orqali kamaytiradi. Yaponiya va Janubiy Koreyada esa davlat bilan yaqindan hamkorlik qilinadi, banklar yuqori texnologiyalarga sarmoya kiritadi. Bu mamlakatlarda texnologik startaplar va sanoat loyihalarini moliyalashtiriladi, risklarni diversifikatsiya, davlat kafolatlari va barqaror investitsiya strategiyalari yordamida boshqarish tizimi mavjud. Shu tariqa xorijiy tajribalar tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonda tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar [10]

Yo'nalish	Amalga oshirilayotgan ishlar	Natijalar va ta'sir
Moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish	- Bank tizimini raqamlashtirish va elektron xizmatlarni joriy etish - Kredit reyting tizimlarini rivojlantirish	Kreditlash shaffofligi oshdi, investitsiya faoliyati uchun ishonch kuchaydi
Qonunchilik va regulyatorlikni takomillashtirish	- Investitsiyalarni himoya qiluvchi qonunlar qabul qilindi - Markaziy bank tomonidan normativ-huquqiy bazani mustahkamlash	Banklar faoliyati uchun barqaror va aniq tartiblar yaratildi
Innovatsion moliyalashtirish	- Fintex startaplari va moliyaviy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash - Yangi investitsion mahsulotlar ishlab chiqish	Banklarning yangi xizmatlari kengaydi, investitsion jozibadorlik oshdi
Risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish	- Sug'urta va garov tizimlarini takomillashtirish - Risklarni baholash va monitoringni yo'lga qo'yish	Investitsiya risklari kamaydi, banklarning barqarorligi oshdi



Xalq xo'jaligini moliyaviy ta'minlash	- Asosiy iqtisodiy tarmoqlarga kredit resurslari ajratish - Davlat tomonidan investitsiyalarni rag'batlantirish	Iqtisodiyotning asosiy sektorlariga investitsiyalar ko'paydi
Kadrlarni malakasini oshirish	- Bank xodimlari uchun malaka oshirish kurslari va treninglar - Xorijiy tajribalarni o'rganish va tatbiq etish	Mutaxassislar salohiyati oshdi, zamonaviy investitsiya usullaridan foydalanish imkoniyati yaratildi

O'zbekistonda tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish maqsadida bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish doirasida bank tizimi raqamlashtirilmoqda va kredit reyting tizimlari joriy etilmoqda, bu esa investitsiyalar uchun ishonchni oshirmoqda. Qonunchilik hamda regulyatorlik bazasi mustahkamlanib, investitsiyalarni himoya qiluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Innovatsion moliyalashtirishni rag'batlantirish uchun fintex startaplari va yangi investitsion mahsulotlar ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, risklarni boshqarish tizimi takomillashtirilmoqda, sug'urta va garov mexanizmlari kengaytirilmoqda. Xalq xo'jaligini moliyaviy ta'minlash maqsadida asosiy tarmoqlarga kredit resurslari ajratilib, davlat tomonidan investitsiyalar qo'llab-quvvatlanmoqda. Bank xodimlarining malakasini oshirish uchun treninglar o'tkazilib, xorijiy tajribalar o'rganilmoqda. Bularning barchasi tijorat banklarining investitsion faoliyatini kengaytirish va iqtisodiyot rivojiga hissa qo'shish uchun muhim asos yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rinda ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilayotgan bir vaqtda milliy iqtisodiyotning asosiy qismi hisoblangan tijorat banklarining rentabelligini oshirish va ularning integratsiya jarayonlarini muvaffaqiyatli tashkil etish mamlakat iqtisodiyotining barqaror va uzluksiz rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi.

Tijorat banklarining investitsiya faolligini oshirish uchun ular Markaziy bank tomonidan belgilangan iqtisodiy normativlarga qat'iy rioya qilishi zarur. Banklar o'z kapitali va likvid resurslarini yetarli darajada ushlab turishi, shuningdek, aktivlarni to'g'ri tasniflash orqali shubhali va harakatsiz aktivlarga qarshi xaziralarni tashkil etishi lozim. Bu choralar banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlab, investitsiya faoliyatining xavfsizligini oshiradi va ularni investorlar uchun yanada jozibador qiladi.

Bundan tashqari, zarar ko'rish xavfini kamaytirish maqsadida tijorat banklari o'z aktivlarini diversifikatsiyalashni samarali tashkil etishi kerak. Aktivlar portfelining diversifikatsiyasi investitsiya risklarini kamaytirish orqali banklarning uzoq muddatli daromadlilikini ta'minlaydi, shu bilan birga iqtisodiyotning turli tarmoqlariga sarmoya kiritish imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa o'z navbatida mamlakatdagi investitsiya muhitini yaxshilash, bank sektorining investitsiya faolligini oshirish va iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Robert C. Merton, Financial innovation and the management and regulation of financial institutions, Journal of Banking & Finance, Volume 19, Issues 3–4, 1995, Pages 461-481, ISSN 0378-4266.
3. Damodaran A. Applied corporate finance. – John Wiley & Sons, 2014.
4. Brealey, R. A., Myers, S. C. (2018). Principles of corporate finance, 12/e (Vol. 12). McGraw-Hill Education.
5. Ramazanov, A.V. Factors affecting the stock market in Russia and regulation of its development. Vector of Science of Togliatti State University. Series: Economics and Management, 2022, no. 1, pp. 32–40.
6. D.Sh. Xikmatillayeva. "Tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini oshirish yo'llari." Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика) 10 (2025): 174-182 b.
7. B. Boyev (2023). Tijorat banklarining samarali investitsion faoliyati haqida. Talqin va tadqiqotlar, 1(24).
8. O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich. (2023). Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish omillari. Лучшие интеллектуальные исследования, 6(2), 181–186 b.
9. Ellis K., Michaely R., O'Hara M. Competition in investment banking //Review of Development Finance. – 2011. – T. 1. – №. 1. – P. 28-46.
10. Internet manbalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>